



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7508869>

ILMIY MA'LUMOTNOMALAR ASOSIDA TURIZM XARITALARINI YARATISH VA TAHLIL QILISH BOSQICHLARI

Muxamadaliyeva Nodira

magistrant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Raxmonov Dilshod Nurboboyevich

g.f.f.d. (PhD)

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

e-mail: dilshod27r@mail.ru

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda turizm jahonda jadal rivojlanmoqda, bu sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga qodir yangi qiziqarli sayyohlik yo'nalishlarini yaratish zaruratini tug'diradi. Shu sababli mazkur maqolada turizm xaritalarini yaratish va tahlil qilish bosqichlari hamda turistlar uchun turizm xaritalarining ahamiyati bo'yicha ma'lumolar beriladi. Shu bilan birga turizmni zamonaviy xaritaga olishning asosiy vazifalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: turizm xaritasi, infratuzilma, umumgeografik xaritalar, turizm industriyasi.

STAGES OF CREATION AND ANALYSIS OF TOURISM MAP ON THE BASIS OF SCIENTIFIC REFERENCES

Muxamadaliyeva Nodira

Rakhmonov Dilshod

Annotation: Currently, tourism is developing rapidly in the world, which necessitates the creation of new interesting tourist destinations capable of meeting the needs of tourists. Therefore, this article provides information on the stages of creating and analyzing tourist maps and the importance of tourist maps for tourists. At the same time, the main tasks of modern mapping of tourism are outlined.

Keywords: tourism map, infrastructure, general geographic maps, tourism industry.

Jahon miqyosida XXI asr boshlarida turizm jadal rivojlanayotgan yirik sohalardan biriga aylandi va rivojlanib bormoqda. Turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng yuksalib borayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, tegishli ta'minotga, ya'ni kartografik mahsulotga muhtojdir. Ularni yaratish kartografiyaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi,

Turizmni zamonaviy xaritaga olishning asosiy vazifalari

1. Turistlar uchun xaritalar yaratish:

- turistik xaritalar mavzusi va mazmunini kengaytirish;


- umumgeografik elementlarning batafsil tavsifi, tabiiy, iqtisodiy, madaniy va tarixiy obyektlarning aniq lokalizatsiyasi;
- mavjud turistik infratuzilmani aks ettirish;
- maqbul (vaqt, masofa qiyinchilik darajasi va boshqalar bo'yicha marshrutlarni ko'rsatish;

- xaritalarni axbarot hajmini oshirish;
- qiziqarli maket va zamonaviy dizayin ishlab chiqish;

2. Turizm industriasini rivojlantirish va turistik faoliyatni tartibga solishni ta'minlash uchun xaritalarni yaratish (turizm biznesi va turizm sohasidagi boshqaruv organlari uchun xaritalar [1; 51-b.]

- xaritaga olinayotgan hududda turizmning rivojlanish istiqbolini ko'rsatish;
- xizmatlar bozorining shakllanishi, turizm sohasiga byudjet mablag'lari va sarmoyalashni tasvirlash.

Turistik xaritalarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi munosabati bilan yangi kartografik asar yaratish, ushbu asarlarni tizimlashtirish va takomillashtirish muammolarini hal qilish, uning kartografik jihozlash estetikasi sohasida ilmiy izlanishlarni kengaytirishga e'tibor ortmoqda [2; 171-172 b;].




1-rasm Turistik xaritalar tasnifi strukturasi

Turistik xaritalar – bu sayyohlar va dam oluvchilar uchun mo‘ljallangan, ularda turizm uchun qiziq bo‘lgan obyektlar: tarixiy yodgorliklar, qo‘riqxonalar, muzeylar, shuningdek, mehmonxonalar, turistik markazlar, lagerlar tasvirlangan asardir. Turistik xaritalarga quyidagi talablar qo‘yiladi (1-rasm)

- xaritalarning ko‘rgazmaliligi, ifodaliligi va yaxshi o‘qilishiga alohida e’tibor berish;
- badiiy jihozlashni puxta ishlab chiqish;
- fotosuratlar, indekslar, matnlar va turli xil ma’lumotlarning mavjudligi;
- foydalanish qulayligi (formati, maketi, qatlami).

Turizm shakllarining xilma-xilligi turistik xaritalarda hududiy qamrovi, masshtabi, eng muhimi – mazmuni va maqsadi bo‘yicha turistik xaritalarning tasnifi mavjud. Buning ifodasini Toshkent viloyati turistik xaritasi misolida ko‘rish mumkin (2- rasm).



2-rasm. Toshkent viloyati atlasidagi turistik xarita

Turizm xaritalari maqsadi va mazmuni bo‘yicha tasniflanishi quyidagicha:

- *ilmiy – ma'lumotnoma*, an'anaviy, birinchi navbatda ilmiy-tadqiqot vazifalarini ta'minlaydi; turistlar uchun jozibadorligi jihatidan hududning uzoq muddatli tavsifini beradigan xaritalar;

- *ommabop-o'lkashunoslik*, foydalanuvchilarning keng doirasiga mo'ljallangan; ulardan ba'zilar soddalashtirilgan kartografik talqinni taqdim etib, turistik marshrutlarning oddiy bukletini aks ettirish, boshqalari reklama taqdimotlari sifatida beriladi, ba'zan esa ajoyib mashhur dizayin bilan Internet saytlarida qiziqarli rasmlar ko'rinishida joylashtirilib, yetarlicha ma'lumotga ega va ularning original dizayni tufayli yaxshi va uzoq esda qoladi.

Turizmni yanada rivojlantirish maqsadida yurtimizda qator qonunlar joriy etilmoqda. Jumladan:

Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini turizm hamda unga bevosita bog'liq bo'lgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash orqali kamaytirish, mamlakatda sanitariya-epidemiologik vaziyat yaxshilanishiga qarab turizm sohasini jadal qayta tiklash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son farmoni va "Sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda, turizm sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 19-iyundagi PQ-4755-son qarori belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi [4]. Ushbu qaror asnosida turizm xaritalariga qaratilgan e'tibor yanada ortdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, turizm xaritalariga qancha ko'p e'tibor bersak, O'zbekiston Respublikasining turizm industriyasining rivojlanishiga yanada hissa qo'shgan bo'lardik. Sababi turistik xaritalarni qanchalik ko'rgazmali bo'lishi sayyohlar e'tiborini shunchaki jalb qilib qolmay, uni ushbu joylarga tashrif buyurishiga sababchi bo'ladi va ularning yurtimiz borasidagi bilimlari kengayadi. Turistik xaritalarning o'quvchanligini oshirish orqali turistik agentlik ish rejalarining bir qismi bajarilishiga ko'maklashiladi hamda turistik kartografiyani yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Берлянт А.М. Картография -М.: „Аспект“-2002
2. Ibraimova A.A Sotsial-iqtisodiy kartografiya T.: „Tafakkur tomchilari“ 2020
3. Mirzaliyev T., Safarov E.Yu., Egamberdiyev A., Qoraboyev J.S. Kartashunoslik T.: „Cho'lpon“-2012
4. <https://lex.uz/docs/-4474527>